



O‘ZBEKISTON VA TURKIYA DAVLATLARI O‘RTASIDA SIYOSIY-DIPLOMATIK ALOQALARNING RIVOJLANISHI

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.10791440>

Imamov Bobur Xo‘janazarovich

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

e-mail: imomov.bobur88@mail.ru

***Annotasiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston - Turkiya o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarining shakllanishi, ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy ziddiyat va o‘zaro kelishmovchiliklarning kelib chiqish sabablari hamda ushbu munosabatlarni tiklash yo‘lidagi say-harakatlari yangi dalillar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi davlat tashriflari hamda rasmiy uchrashuvlari jarayonida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohalaridagi imzolangan normativ-huquqiy hujjatlar ikki tomonlama o‘zaro manfaatli aloqalarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etayotganligi, turli davrlarda O‘zbekiston va Turkiya davlat rahbarlarining uchrashuvlarida davlat va jamiyat hayotining eng dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha masalalar muhokama etilib, aniq strategik maqsadlar asosida bitim va shartnomalar imzolanib, amaliyotga joriy etilishi, yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tashqi siyosat, hamkorlik, munosabat, integrasiya, demokratiya, fan, mustaqillik, madaniyat, dunyoqarash, xavfsizlik.*

РАЗВИТИЕ ПОЛИТИКО-ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ

Имамов Бобур Хужаназарович

Доктор философии по историческим наукам (PhD)

Каршинский инженерно - экономический институт

***Аннотация:** В данной статье на основе новых фактов проанализированы формирование узбекско-турецких взаимоотношений, причины возникновения политических противоречий и разногласий между двумя государствами, а также усилия по восстановлению этих отношений. В последние годы в ходе государственных визитов и официальных встреч на высшем уровне глав двух государств было отмечено, что подписанные нормативные правовые акты в торгово-экономической, научно-технической, культурно-гуманитарной сферах приобретают важное значение для расширения двусторонних взаимовыгодных связей. В статье также освещены вопросы решения на встречах глав государств Узбекистана и Турции в разные периоды наиболее актуальных направлений жизни государства и общества, обсуждения, подписания и внедрения в практику соглашений и соглашений на основе конкретных стратегических целей.*



Ключевые слова: внешняя политика, сотрудничество, отношение, интеграция, демократия, наука, независимость, культура, мировоззрение, безопасность.

DEVELOPMENT OF POLITICAL-DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE COUNTRIES UZBEKISTAN AND TURKEY

Imamov Bobur Khojanazarovich

Doctor of philosophy in historical sciences(PhD),
Karshi engineering-economics institute

***Abstract:** This article analyzes the formation of Uzbek-Turkish relations, the causes of political contradictions and disagreements between the two states, as well as efforts to restore these relations based on new facts,. Also in recent years, during state visits and official high-level meetings of the heads of the two states, it was noted that the signed normative legal acts in the trade, economic, scientific, technical, cultural and humanitarian spheres are becoming important for expanding bilateral mutually beneficial ties, at meetings of the heads of state of Uzbekistan and Turkey in different periods, issues on the most relevant areas of the life of the state and society. discussion, signing and implementation of agreements and agreements based on specific strategic goals are highlighted.*

***Keywords:** foreign policy, cooperation, response, integration, democracy, science, culture, independence, religion, security.*

KIRISH

XX asrning 90-yillar boshida dunyo hamjamiyatida sodir bo'lgan geosiyosiy o'zgarishlar natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida bir qator mustaqil davlatlar tashkil topdi. Mustaqil davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi o'zaro hamkorlik hamda xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlarini ximoya qilishida, eng avvalo Yevropa va Osiyo mintaqasidagi rivojlangan davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatishni taqozo etdi. Bu borada O'zbekistonda mustaqillik yillarida tashkiliy va huquqiy asoslar yaratildi hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar, dunyoning turli davlatlari bilan barcha sohalarda o'zaro manfaatli aloqalar yo'lga qo'yilib, qator ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Xususan, O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari ham ikki mamlakatlar manfaatlariga xizmat qildi. Ta'kidlash kerakki, Turkiya dunyo hamjamiyatida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan, Osiyo va Yevropa qit'olari tutashgan, iqtisodiy va geostrategik qulay joyda joylashgan davlat hisoblanadi. Shuningdek, "Biz uchun yaqin do'st va iqtisodiy sherik bo'lgan Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olganini"[1] ham e'tirof etish maqsadga muvofiq.





O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi, xalqaro munosabatlar tizimida munosib o'rin egallashi, o'z manfaatlarini siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy sohalarda samarali amalga oshirishi bilan belgilanadi. Shunga asosan, O'zbekiston va Turkiya davlatlari hamkorligida yangi bosqich yuzaga keldi. Amalga oshirilgan o'zaro munosabatlardagi rasional yondashuvlar har ikki mamlakatlar tashqi siyosatida yangi sahifa ochilishiga zamin yaratdi. Zero, Turkiya ayni vaqtda yirik imkoniyatlarga ega, dunyo miqyosida hurmat qozongan davlat sifatida, o'zbek va turk xalqlari dini, tili, tarixi va madaniy jihatdan bir-birlariga juda yaqin millatlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 25 oktabrdagi Anqaraga rasmiy tashrifi Turkiyaning O'zbekiston bilan munosabatlarida yangi sahifa ochdi. O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya hukumati o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida protokollar, savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm sohalaridagi o'zaro hamkorlik haqida protokollar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va Turkiya Respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni ilmiy tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

MUHOKAMA

Turkiya ham dunyo hamjamiyatida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan, XX asr so'ngi choragida demokratiya, ijtimoiy adolat kabi tamoyillar asosida o'zining tashqi siyosiy faoliyatini yo'lga qo'ygan davlatdir. Turkiya o'zining "Turk modeli"ni bozor iqtisodiyoti sharoitida mohirona qo'llab, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqdi[2]. Natijada Turkiyada iqtisodiy isohotlar o'z samarasini berib, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridan joy oldi.

1991 yilda Turkiya Prezidenti Turgut O'zalning SSSRga diplomatik tashrifi nafaqat Moskvani, balki Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa ittifoq respublikalarini ham qamrab oldi[3]. Ushbu tashriflar sobiq Sovet Ittifoqi janubida yangi paydo bo'lgan respublikalarga nisbatan Turkiyani qiziqishi ortib borayotganligini ko'rsatdi. 1991 yil 8 dekabrda MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) tuzildi va Turkiya yangi mustaqil respublikalarini tan olgan birinchi davlat bo'ldi[4]. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarini Turkiya orqali Yevropa mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatishi uchun imkoniyatlar ochdi.

Bunda avvalo tili, dini, madaniyati tarixan mushtarak bo'lgan turkiy tilli xalqlar bilan, xususan, O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga ahamiyat qaratdi. Eng avvalo, Turkiya O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan oldi va ikki davlat hamkorligida yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Bu esa o'z navbatida, Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi



integrasyon jarayonlarda ishtirokini ta'minlashga hamda siyosiy nufuzini ortishiga xizmat qildi.

O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlanishini uch bosqichga bo'lib tahlil qilish mumkin: 1-bosqich: 1991–1999 yillar, 2-bosqich: 2000–2016 yillar, 3-bosqich: 2016 yildan boshlanadi.

Birinchi bosqich 1991–1999 yillarda ikki davlat o'rtasida turli sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yildi va ikki tomonlama o'zaro manfaatli shartnoma va bitimlar imzolandi. Ammo, Turkiyaning ba'zi tijorat shirkatlari shartnoma shartlarini bajarmaganliklari hamda O'zbekistonda faoliyat yuritgan o'zbek-turk liseylarining diniy-siyosiy terrorchilik tashkilotlarga aloqadorligi kabi sabablar tufayli ikki davlat munosabatlari sustlashdi. Ikkinchi bosqich 2000–2016 yillarda O'zbekiston va Turkiya munosabatlari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Masalan, ushbu yillarda Turkiya xukumati rahbarlari tomonidan rasmiy tashriflar amalga oshirilgan bo'lsa-da, asosan xalqaro doiradagi anjumanlarda uchrashdilar. Bu davrda O'zbekiston va Turkiya o'rtasida diplomatik va siyosiy munosabatlarida chekinish ko'zga tashlanadi. Savdo, tranzit va boshqa iqtisodiy munosabatlar saqlangan bo'lsa-da, ammo boshqa sohalardagi aloqalar pasayganligi hamda tizimli bo'lmaganligini ko'rsatadi. Uchinchi bosqich 2016 va undan keyingi yillarda ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar va amalga oshirilgan davlat tashriflari natijasida ikki davlat o'rtasida barcha sohalarda yangi "strategik hamkorlik" darajasiga ko'tarilganligi bilan asoslash mumkin.

O'zbekiston va Turkiya Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari va davlat tashriflari 1991 yilning oxirlaridan boshlandi. Mazkur yilning 16-19 dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning Turkiyaga rasmiy tashrifi davomida "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi aloqalarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma", "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida bitim", "Ahdlashuv protokoli" kabi xujjatlarni[5] imzolanishi bu boradagi ilk qadam bo'ldi.

1992 yil 28 aprelda Turkiya Bosh vaziri S.Demirelning O'zbekistonga kelishi ikki davlat o'rtasida munosabatlarning rivojlanishida katta voqea bo'ldi. 1992 yil 28 aprelda Toshkent shahrida Turkiya Respublikasining elchixonasi ochildi[6]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi 1993 yil yanvardan o'z faoliyatini boshladi[7]. Ikki davlat elchixonalarining ochilishi o'zaro siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarni jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1992 yil 29 iyun – 1 iyul kunlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov Turkiyaga tashrif buyurdi[8]. Shuningdek, I.Karimov 1994 yil iyun va 1997 yil noyabr oylarida ham Turkiyaga rasmiy tashrif buyurdi va 1998 yil



oktabrda Turkiya Respublikasining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda ishtirok etdi[9]. Shu tariqa ikki davlat o'rtasida katta tantanalari, festival va ilmiy anjumanlarni hamkorlikda o'tkazish an'anaga aylanib bordi.

O'z navbatida Turkiya Prezidenti S.Demirel esa 1996 yil 7 mayda O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi[10]. Mazkur yilning oktabrida Prezident S.Demirel O'zbekistonda o'tkazilgan turkiy tilli davlatlar rahbarlarining oliy darajadagi IV uchrashuvida va Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarda ishtirok etdi[11].

Umuman, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini ikki davlat o'rtasida 1996 yilda tuzilgan "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, terrorizmga va giyohvand moddalar bilan noqonuniy savdo qilishga qarshi kurash, sog'liqni saqlash, transport, turizm, madaniyat va boshqa sohalarida imzolangan 70 dan ortiq hujjatlar tashkil etdi[12]. Ushbu hukumatlar tomonidan erishilgan kelishuvlar, tuzilgan shartnoma va bitimlar ikki davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning barcha sohalarini rivojlanishiga xizmat qildi.

Turkiya davlat rahbarlari O'zbekistonga tez-tez tashrif buyurib, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirib bordi. Turkiya Prezidenti S.Demirel 1999 yil 15 martda O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi[13]. Tashrif davomida Samarqand shahridagi buyuk hadisshunos Imom al-Buhoriy majmuasini ziyorat qilar ekan, o'tgan yili allomaning 1225 yilligi munosabati bilan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishib, Imom al-Buhoriy va Bohouddin Naqshbandiy majmualariga 5 ming AQSH dollardan mablag' taqdim qildi. Shuningdek, Turkiya Prezidenti S.Demirel va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Samarqanddagi "SamKochavto" qo'shma korxonasi uchun ochilish marosimida ishtirok etdi[14]. Ushbu zavodni ishga tushirilishi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshishiga hamda Markaziy Osiyoda yagona avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoridan o'rin olishiga xizmat qildi.

O'zbekiston va Turkiya Respublikalari hamkorlik aloqalari rivojlanishining ikkinchi bosqichida (2000–2016 y.) Turkiya xukumati rahbarlari tomonidan rasmiy tashriflar amalga oshirilgan bo'lsa-da, asosan ikki mamlakat rahbarlari xalqaro doiradagi anjumanlarda uchrashib turdi. Masalan, 2000 yil sentabrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov va Turkiya Prezidenti A.Sezerning BMT ning "Ming yillik" sammiti doirasida uchrashdi. Mazkur yilning 16-17 oktabr kunlari Turkiya Prezidenti A.Sezer O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi[15].

Ikki davlat rahbarlarining uchrashuvlarida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya hukumati o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida protokollar, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat,



ta'lim, fan, sog'liqni saqlash va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikasiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televideniya va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi.

2003 yil 19 dekabrda Turkiya Bosh vaziri R.Erdo'g'onni O'zbekistonga kelishi bu bitim va kelushuvlarni yanada kengayishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik hamda diplomatik pasport egalari uchun vizalarni bekor qilish haqida hukumatlararo bitimga kelishildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi bitimlar ikki davlat uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Ammo turli omillar tufayli O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy hamkorlikda chekinish ko'zga tashlanadi. Ikki davlat o'rtasidagi sust aloqalar 2008–2013 yillarga to'g'ri keladi. Savdo, tranzit va boshqa iqtisodiy munosabatlar barqaror saqlangan bo'lsa-da, ammo diplomatik va siyosiy aloqalar to'xtab qolgan edi. Bunga quyidagi omillar keltirish mumkin:

1) O'zbekistonda valyuta konvertasiyasida muammolarning mavjudligi. O'zbekiston–Turkiya qo'shma korxonalarini ishchilari hamda o'zbek-turk liseylari o'qituvchilari oylik maoshlarini to'lashdagi muammolar, viza olish, aviachiptalar, tibbiy xizmat ko'rsatish kabi muammolar yuzaga kelishi;

2) ba'zi Turk shirkatlarining xalqaro diniy-siyosiy terrorchilik tashkilotlarga xususan, "Fethullohchilar"¹ bilan aloqadorlikda gumon qilinishi, ular tomonidan O'zbekistonga ta'qiqlangan adabiyotlarni olib kirishga bo'lgan urinishlari ikki davlat munosabatlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Misol qilib, "Silm" shirkati tomonidan tashkil etilgan o'zbek-turk liseylarini yopilishi kabi holatlar sabab bo'ldi.

3) O'zbekistonda bunyod etilgan qator o'zbek-turk qo'shma korxonalarini, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda turkiyalik ishbiarmonlar tuzilgan shartnoma shartlariga amal qilmagan. Masalan, 2008 yilda Toshkentdagi "Turkuaz" savdo markazlari yopilishi hamda qo'shma korxonalariga Turkiyadan keltirilgan texnik jihozlarning eskirganligi va sifatsizligi kabilar.

Ikki davlat rahbarlarining xalqaro anjumanlar doirasidagi uchrashuvlari tufayli ikki davlat munosabatlarining qayta tiklanishiga asos bo'ldi. 2014 yil 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Sochi (Rossiya) shahrida XXII qishki Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimiga safari doirasida

¹ Turkiyada XX asr birinchi yarmida paydo bo'lgan va asosan Turkiyada va boshqa davlatlar ichki boshqaruv tizimiga joylashib olib, davlatni qayta tuzishni maqsad qilib qo'ygan, maxfiylik va tovlamachilik ustiga qurilgan yangi avlod terrorchi tashkilotidir. Yetakchisi Fethullah Gulen. 1970 yildan xususiy maktablar ochib, yoshlarni ongiga o'z g'oyalari bilan ta'sir o'tkazishga harakat qilgan. Bugungi kunda faoliyati to'xtatilgan.



Turkiya Prezidenti Rejep Erdo‘g‘on bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi[16]. Shuningdek, Islom Karimov va Rejep Erdo‘g‘an bir yilda bir marta Tashqi ishlar vazirligi darajasida hamda davlat rahbarlari darajasida uchrashuvlar o‘tkazib turishga kelishib olindi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov har bir xorijiy mamlakatga safar qilganda, hukumat rahbarlari bilan muzokara olib borar ekan, asosiy e‘tiborni “teng huquqlilik, o‘zaro teng manfaatlar” asosida olib borishga qaratdi. Ekspertlarning fikricha, Sochidagi uchrashuvda Islom Karimov bu prinsipni yana bir karra Turkiya hukumati rahbariga yetkaza oldi. Shuni aytish mumkinki, uzoq muddat davomidagi turg‘unlikdan so‘ng Turkiya O‘zbekiston munosabatlarida bir qator jonlanishi hamda o‘zaro munosabatlarni tiklash tashabbuskori Turkiya hukumati bo‘ldi.

2014 yil 20-21 mayda Xitoyning Shanxay shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning to‘rtinchi sammiti doirasida hamda iyul oyida Toshkentga tashrif buyurgan Turkiya Tashqi ishlar vaziri Ahmet Dovuto‘g‘lu O‘zbekiston Respubloikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov va xukumat vakillari bilan uchrashdi[17]. Uchrashuvlarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini yana rivojlantirishga doir masalalar muhokama kilindi.

Ikki davlat o‘rtasida siyosiy muloqotlarning yo‘lga qo‘yilishi bir qator omillar bilan bog‘liq edi.

Birinchiidan, Turkiya hukumatining g‘oyaviy raqibi “Fethullohchi” diniy-siyosiy tashkiloti va uning yetakchilariga qarshi olib borgan kurashi shuni ko‘rsatdiki, bundan bir necha yil oldin O‘zbekiston hukumati ko‘rgan choralari amalda to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Ayniqsa, uning homiyligidagi o‘quv muassasalarining yopilishi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi “ko‘rinmas to‘siq”ning amalda olib tashlanishiga sabab bo‘ldi.

Ikkinchiidan, O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining sovuqlashishi ikki davlatni, ayniqsa, Turkiyani moliyaviy mablag‘lardan voz kechishiga majbur qildi. O‘zbekiston dengiz portlariga chiqish uchun muqobil variantlarni izladi, tranzit transport yo‘llarini rivojlantirib bordi. Xususan, Latviya bilan aloqalarning birmuncha jonlanib qolgani, Fors ko‘rfaziga chiqish choralari ko‘rilayotgani ham Turkiya uchun katta iqtisodiy imkoniyatlarni boy berish bilan teng edi. Shu sababli Ahmet Dovuto‘g‘lining “Turkiyaning portlari – O‘zbekistonning ham portlaridir” degan so‘zlari har bir o‘zbekistonlik uchun yoqimli eshitilsa-da, aslida bu Turkiyaning o‘z portlariga diqqat qaratishini so‘rashi edi.

Uchinchiidan, O‘zbekiston fuqarolari turistik maqsadlarda Turkiyaning Istanbul, Bodrum va Antaliya singari shaharlariga ko‘p tashrif buyurayotganligi Turkiyaga O‘zbekiston bilan tom ma‘noda iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish katta foyda keltirishini ko‘rsatib turibdi.



To‘rtinchidan, Xitoy G‘arbiy Yevropa bozorlariga chiqish uchun turli transport loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirdi. “Beijing Times” gazetasining qayd etishicha, Xitoy hukumati 2014 yilda uchta temiryo‘l tarmoqlarini rivojlantirdi[18]. Ushbu tarmoqlardan biri Xitoy g‘arbidagi Urumchi shahridan boshlanib, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston, Eron va Turkiya orqali Germaniyaga yetib boradi. Shuning uchun ham Ahmet Dovuto‘g‘li transport sohasida katta loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilayotganini qayd etib, xususan, Xitoyning “Pekin – Istanbul” temiryo‘l loyihasi O‘zbekistonga ham foydali hamda O‘zbekistonning Turkiya portlariga chiqishi imkonini berishini qayd etganida ham mana shu iqtisodiy manfaatlar nazarda tutiladi.

Bu davrda O‘zbekiston–Turkiya bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda asosiy e‘tiborni iqtisodiy va siyosiy muloqotlarga qaratdi. Madaniy hamkorlik masalalarida bir oz chekinish bo‘ldi.

O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari hamkorlik aloqalarining uchinchi bosqichi 2016 va undan keyingi yillar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti R.Erdo‘g‘on o‘rtasidagi muntazam uchrashuvlar ikki davlat munosabatlarini yangi darajaga olib chiqdi. Zero, “O‘rtamizda ishonchsizlik va sovuqchilik davrlari bo‘lgan edi, lekin biz birlashib, ushbu muzlarni eritdik va bu sovuqchilik endi hech qachon qaytmaydi”[19], deb ta’kidladi SH.Mirziyoyev.

Xususan, ikki davlat rahbarlari 2016 yil noyabr oyida Rejep Erdo‘g‘onning Samarqandga tashrifi chog‘ida va 2017 yil may oyida Pekinda bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” anjumani, shuningdek, sentabr oyida Qozog‘istonda o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammiti doirasida ham uchrashdi[20]. Uchrashuvlarda O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy, investisiya, turizm, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, to‘qimachilik, transport kommunikasiyasi va boshqa ko‘plab sohalarda foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligi ta’kidlandi va bu boradagi hamkorlikni kengaytirish tadbirlari ko‘rildi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti R.Erdo‘g‘on 2016 yil 17-18 noyabr kunlari Samarqand shahriga tashrif buyurib, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov qabrini ziyorat qildi. Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi SH.Mirziyoyev bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti R.Erdo‘g‘on o‘rtasida muzokaralar bo‘lib o‘tdi[21]. Savdo-iqtisodiy hamkorlik masalalari haqida ham kelishib olindi. 2015 yil yakunida o‘zaro savdo hajmi 1,2 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston hukumati delegasiyasining 2017 yil fevral-mart oylarida Turkiyaga tashrifi chog‘ida iqtisodiyotning turli yo‘nalishlari bo‘yicha 1 milliard



AQSH dollarlik shartnomalar imzolangan bo'lsa, mazkur yilning may oyida Toshkent shahrida ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiyaning to'rtinchi yig'ilishida barcha yo'nalishdagi hamkorlikning joriy holati tahlili hamda istiqbollari ko'rib chiqilib, 2 milliard AQSH dollarlik shartnomalar imzolandi. Ushbu o'zaro hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi hukumatlararo uchrashuvlar va kelishuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 25-26 oktabr kunlari Turkiyaga davlat tashrifi uchun zamin yaratdi va ushbu davlat tashrifi bu ikki davlat o'rtasida o'zaro munosabatlar yangi bosqichga o'tganligini ko'rsatib berdi. Tashrif davomida ishbilarmon doiralari o'rtasida tashkil etilgan biznes forumida yirik energetika obyektlari va yo'l infratuzilmalarini qurish, to'qimachilik mahsulotlari, elektr jihozlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va agrosanoat tarmog'ida zamonaviy sanoat va logistika markazlari tashkil etish sohalarida 3,5 milliard AQSH dollari hajmidagi 30 dan ortiq loyiha bitimlar imzolandi[22].

Umuman olganda, 2017 yilning o'zida mamlakatlarimiz o'rtasida turli darajadagi o'zaro tashriflar yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, Turkiya Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri, milliy mudofaa vaziri boshchiligidagi delegasiyalar O'zbekistonda, mamlakatimiz Bosh vaziri o'rinbosarlari, mudofaa vaziri rahbarligidagi delegasiyalar Turkiyada bo'ldi. Qator qo'shma tadbir va forumlar (25-may O'zbekiston-Turkiya xukumatlararo komissiyasining majlisi, 30-sentabr Toshkentda va 6-oktabr kunlari Istanbulda o'tgan biznes forumlar) o'tkazildi va ularda hamkorlikning ko'plab istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'on 2018 yil 29 aprel – 1 may kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi[23]. Uchrashuv davomida davlat rahbarlari ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi strategik munosabatlarning bugungi holati, ularni yanada rivojlantirish istiqbollari, savdo-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish hamda chuqurlashtirish, ular bo'yicha aniq kelishuvlarga erishish masalalarini muhokama qilindi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston–Turkiya hukumatlararo qo'shma komissiyasining yig'ilishlarini muntazam o'tkazishni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi.

2018 yil 30 aprelda Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'onning parlament a'zolari oldida so'zlagan nutqi Oliy Majlis bilan Buyuk millat majlisi o'rtasidagi aloqalarni o'zaro tajriba hamda axborot almashish asosida rivojlantirish hamda O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni yuqori baholadi. Oliy martabali mexmon o'zbek xalqining shonli o'tmishi, ulug' ajdodlarimizning bashariyat sivilizasiyasiga qo'shgan beqiyos xissasi haqida nutq so'zladi[24].



O'zbekiston Turkiyaning Markaziy Osiyoda eng asosiy sheriklaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning ulkan bozori, tobora liberallashtirib borayotgan iqtisodiyoti, qulay investitsiyaviy muhiti, tarixiy shaharlari, turizm maskanlari, muqaddas diniy qadamjolari Turkiyada katta qiziqish uyg'otmoqda. Demak, hamkorlikni mustahkamlashdan har ikki tomon ham manfaatli bo'lib, bu esa o'zaro munosabatlarning istiqboli yuksak ekanligidan dalolat beradi.

Turkiya dunyoni iqtisodiy jihatdan rivojlangan 20 taligida davlat bo'lib, O'zbekiston olib borayotgan tinchlik siyosati yo'lini xalqaro maydonda hamisha qo'llab-quvvatlayotgan davlat sifatida respublikani Yevropa va dunyoga chiqishida ushbu munosabatlarni yuqori bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2018 yil 3 sentabrda Qirg'izistonning Cho'lponota shahridagi "Ruh o'rda" madaniyat markazida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitida bo'lib o'tdi[25]. Ma'lumot uchun, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi 2009 yilda tashkil etilib, tashkilot kotibiyati Istanbul shahrida joylashgan. O'zbekiston kengash anjumanida birinchi marotaba qatnashdi va sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida 2018 yil iyun oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Markaziy Osiyo bo'yicha qabul qilingan rezolyusiya mintaqa xalqlari orasida muhim qadam bo'ldi. Shu bois, 2019 yil 15 oktabrda O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lishi ushbu tuzilma tarkibidagi davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarida o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda[26].

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo'yicha ikki davlatning pozitsiyalari bir-biriga o'xshashligi tufayli Turkiya va O'zbekiston BMT, SHHT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qildi.

Samarqand shahrida 2017 yil 10-12 noyabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi[27]. Turkiya tomoni Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va ravnaq topayotgan mintaqaga aylantirish maqsadida Markaziy Osiyoda oliy darajadagi siyosiy muloqotni faollashtirish, o'zaro anglashuv, ishonch, ahil qo'shnichilik va yanada yaqin mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha O'zbekiston va boshqa qardosh mamlakatlarning say-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi.

Jumladan, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga qarshi kurashish ikki mamlakat hamkorligida muhim o'rin tutdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida dunyoda terrorizm tahdidlari kuchayib borayotgani, ularga qarshi kuch ishlatish yo'li bilan



kurashish usuli o'zini oqlamayotgani, bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganiga urg'u berdi. O'shanda "Yuksak minbarda bizning buyuk bobolarimiz haqida so'zlash uchun katta yurak, kuchli iroda kerak. Birorta Prezident bu ishni qila olmas edi. Faqat Shavkat Mirziyoyev qila oldi" deb O'zbekiston Prezidentini birinchi bo'lib qutlagan ham Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Erdo'g'on bo'ldi[28]. Shuningdek, islom dini hamda qadriyatlarini mustahkamlash sohasida ham hamkorlik qilindi. Jumladan, O'zbekistonning islom dinini ma'rifiy jihatlarini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi Turkiya Prezidenti Rejep Erdo'g'on tomonidan yuqori baholandi.

Jahon ommaviy axborot vositalarida ikki davlat o'rtasidagi aloqalar doimiy ravishda yuqori baholanib kelindi. Masalan, Turkiyadagi nufuzli "Turcomoney" nashrining yillik reytingida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yilning xorijiy davlat arbobi" deya e'tirof etildi. Bu haqda Istanbul shahrida Turkiya Buyuk Millat Majlisi raisi Binali Yildirim, Istanbul shahri xokimi Mevlyut Uysal, mamlakat xukumati parlamenti, jamoatchilik va ishbiarmon doira vakillari ishtirokida o'tkazilgan tantanali marosimda e'lon qilindi[29].

Umuman olganda, O'zbekistonning Turkiya tomonidan tan olinishi davlatlar hamkorligini yangi pog'onaga ko'tardi. Turli davrlarda O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlarining uchrashuvlarida davlat va jamiyat hayotining eng dolzarb yo'nalishlari bo'yicha masalalar muhokama etilib, aniq strategik maqsadlar asosida bitim va shartnomalar imzolanib, amaliyotga joriy etildi. Ayniqsa, O'zbekiston–Turkiya hamkorligi Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

XULOSA

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi o'zaro diplomatik aloqalarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

- Turkiya dunyoda rivojlangan davlatlaridan biri sifatida O'zbekiston mustaqilligini tan olgan ilk davlatlardan biri sifatida amaliy va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'ydi.
- O'zbekiston va Turkiya aloqalarini o'rnatishda avvalo hamkorlikning huquqiy asoslarini shakllantirishga kuchli ahamiyat qaratildi. Ikki davlat Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari, davlat tashriflari va yuqori darajadagi siyosiy muloqotlarida barcha sohalarda bitimlar imzolandi va mazkur hujjatlar asosida soha huquqiy asoslari shakllantirildi.
- O'zbekiston va Turkiya hamkorlik aloqalari mustaqillik yillarida turlicha holatda rivojlandi. O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlari SH.Mirziyoyev va



R.Erdo‘g‘onlarning siyosiy faolligi tufayli mamlakatlar o‘rtasida munosabatlar strategik jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Tashqi siyosatda tinchlik, barqarorlik, teng huquqlilik, o‘zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlik, kuch ishlatmaslik kabi tamoyillarni asos qilib olgan O‘zbekiston, tashqi aloqalarda ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar o‘rnatish va rivojlantirishning tarafdori hamda tashabbuskori bo‘ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 390.
2. Imamov, Bobir Khojanazarovich HISTORY OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY // ORIENSS. 2023. №1-2. P.347.
3. Muhittin Ataman, “Leadership Change: Ozal Leadership and Restructuring in Turkish Foreign Policy”, *Alternatives Journal*, Vol. 1, No. 1 (Spring 2002): P. 134.
4. Bülent Aras, “Turkey’s Policy in the Former Soviet South: Assets and Options”, *Turkish Studies*, Vol. 1, No. 1, (Spring 2000): P. 45.
5. Документы, подписанные в Турсии // Народное слово. 21 декабря 1991 г.
6. Открытие посольства Турецкой Республики // Правда Востока. 30 апреля 1992 г.
7. Мухаммadiyah N. Hamkorlikning yangi bosqichi // Xalq so‘zi. 2000 yil 14 oktabr.
8. Президент Республики Узбекистан в Турции // Народное слово. 1 июля 1992 г.
9. Turkiya zaminidagi tantanalar // Xalq so‘zi. 1998 yil 30 oktabr.
10. Крепнут вековые узы братства // Народное слово. 8 мая 1996 г.
11. O‘zR MDA, M-7-fond, 1-ro‘xat, 331-ish, 36-varaq.
12. Узбекистан–Турция: Открываются новые горизонты сотрудничества // Народное слово. 11 мая 1996 г.
13. O‘zbekiston-Turkiya: abadiy do‘st va ishonchli hamkor// Xalq so‘zi. 1999 yil 16 mart.
14. O‘zbekistonning yana bir avtomobil zavodi ish boshladi // Xalq so‘zi. 1999 yil 17 mart.
15. Yakdillik-munosabatlar rivojining mezoni // Xalq so‘zi. 2000 yil 17 oktabr.
16. Имамов, Б. Х. (2019). Исторический аспект вопроса сотрудничества Узбекистана и Турции. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 71).
17. Abdulaziz Komilov Turkiya tashqi ishlar vaziri bilan uchrashdi. <http://vatandosh.uz/2014/05/erdogan-5> 27.05 2014.



18. O‘zbekiston–Turkiya: Quyosh yana sharqdan chiqdi <http://vatandosh.uz/2017/03//ўзбекистон-туркия-қуёш-яна-шарқдан/> 2.05. 2017.
19. Silk Road Fund is officially established in Beijing. <http://www.silkroadfund.com.cn/enweb/23773/index.html> 29.12 .2014.
20. Ortiqov Sh. O‘zbekiston–Turkiya: buyuk tarix bunyod etgan ikki ulug‘ xalq // Xalq so‘zi. 2018 yil 27 aprel.
21. Rajabov Q., Bekmuratov X. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik tarixidan. – Toshkent: Tafakkur, 2017. – B.4.
22. Imamov, Bobir Khojanazarovich HISTORY OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY // ORIENSS. 2023. №1-2. P.348.
23. Alimova G. Umumiy va mushtarak tarix mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarda izchillik kasb etmoqda // Xalq so‘zi. 2018 yil 2 may.
24. Imamov, Bobir Khojanazarovich COOPERATION BETWEEN THE COUNTRIES OF UZBEKISTAN AND TURKEY IN THE CULTURAL SPHERE // ORIENSS. 2022. №3. P.357.
25. Mirzayev A. O‘zbekiston-Turkiya munosabatlari jahon matbuotida keng yoritilmoqda // Xalq so‘zi. 2018 yil 2 may.
26. Новая вежа в многовековой дружбе и укреплении братских уз // Правда Востока. 16 октября 2019 г.
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo:yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi. 2017 yil 11 noyabr.
28. Quronov M. Qardoshlik va hamkorlik tantanasi.// O‘zbekiston ovozi. 2018 yil 3 may.
29. Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiyada “Yilning xorijiy davlat arbobi” deb topildi // Xalq so‘zi. 2018 yil 28 dekabr.
30. Axmedov, B. (2023). YEVIROPA CHORVACHILIGIDA QORAKO‘LCHILIK. *Journal of Social Sciences*, 4(01).
31. Axmedov, B. (2021). Qorako'lchilik sohasini ilmiy tadqiqotlarda o'rganilishining ahamiyati. *Journal of Social Sciences*, 2(01).
32. Otakulovich, K. K. (2023). THE IMPORTANCE OF CREATIVE WORKS DURING THE TIME OF AMIR TEMUR (IN THE CASE OF THE SHAHRISABZ STATE MUSEUM RESERVE). *Journal of Universal Science Research*, 1(2), 475-479.
33. Хосиятов, Х. О. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТЛАРИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ НУФУЗЛИ ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАР ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 186-190.